

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784795>

INGLIZ VA O‘ZBEK FE‘LLARINING KONSTRAKTIV TADQIQI, ULARNING TASNIFI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Otaxonova O‘g‘iloy Umid qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 1- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek fe‘llarining tasnifi hamda grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga, ochib berishga qaratilgan. Konstraktiv ya‘ni taqqoslash tilshunoslik yondashuvi asosida fe‘l turlari, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ingliz tilining yordamchi fe‘llarga va qat‘iy so‘z tartibiga asoslanishi, o‘zbek tilining esa agglutinative (so‘zlar asosiga turli xil grammatik qo‘shimchalar qo‘shilishi) tuzilmaga asoslanganligi namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot ayniqsa tilshunoslar va o‘qituvchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar : *Ingliz tili, o‘zbek tili, fe‘llarning tasnifi, grammatik xususiyatlar , kontrastiv tilshunoslik, agglutinativ til, yordamchi fe‘llar , zamonlar, mayllar, aspektlar, morfologiya, sintaksis;*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению классификации и грамматических особенностей английских и узбекских глаголов. В рамках контрастивного лингвистического подхода анализируются типы глаголов, времена, аспекты, наклонения и синтаксические особенности. В исследовании подчеркивается, что английский язык основывается на вспомогательных глаголах и строгом порядке слов, тогда как узбекский язык характеризуется агглютинативной структурой и использованием аффиксов. Это исследование особенно полезно для лингвистов и преподавателей.

Ключевые слова: *Английский язык, узбекский язык, классификация глаголов, грамматические особенности, контрастивная лингвистика, агглютинативный язык, вспомогательные глаголы, времена наклонения, аспекты, морфология, синтаксис;*

ANNOTATION

This article is dedicated to the study of the classification and grammatical features of English and Uzbek verbs. Using a contrastive linguistic approach, verb types, tenses, aspects, moods, and syntactic features are analyzed. The study highlights the reliance of English on auxiliary verbs and strict word order, while Uzbek is based on an agglutinative structure and the use of affixes. This research is particularly useful for linguists and educators.

Keywords: *English language, uzbek language ,verb classification ,grammatical features, contrastive linguistics, agglutinative language, auxiliary verbs, tenses, moods, aspects, morphology, syntax.*

Kirish

Fe'l gap bo'laklarining asosiy qismlaridan biri bo'lib, harakat, holat yoki voqealarni ifodalaydi. Ularning tasnifi va grammatik xususiyatlari har qanday tilning sintaktik va semantikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Fe'llar nafaqat tilning grammatik tuzilishini shakllantiradi, balki ularning ishlatilishi tilning madaniy, itimoiy va kommunikativ jihatlarini ham aks ettiradi. Har bir til o'z fe'l tizimi orqali o'zining tilshunoslik xususiyatlarini namoyon etadi va bu farqlar o'rganilayotganda tilning o'ziga xosligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ingliz va o'zbek tillari fe'llarining grammatik tizimi, ularning morfologik va sintaktik strukturalari turlicha bo'lishi mumkin. Ingliz tili ko'p hollarda yordamchi fe'llarga, qat'iy so'z tartibiga va vaqtni ifodalash uchun yordamchi elementlarga tayanadi. O'zbek tili esa agglutinativ til bo'lib, fe'lning grammatik kategoriyalari qo'shimchalar orqali ifodalanadi, ya'ni fe'llarga qo'shimchalar qo'shib, harakatni yoki holatni o'zgartirish mumkin. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi esa o'zbek va ingliz fe'llarini qiyosiy tahlil qilishdir. Maqolaning dolzarbligi shundaki, u o'zbek yoki ingliz fe'llarini ikkinchi til sifatida o'rgatishda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlashga va bartaraf etishga yordam beradi. Tadqiqot fe'l turlari, grammatik kategoriyalar (zamon, aspekt, mayl) va fe'lning sintaktik xususiyatlariga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot qiyosiy tahlil metodi asosida olib boriladi va ushbu usul ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik tuzilmalaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Ikkala tilni taqqoslash orqali har bir tilning fe'l tasnifi, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik xususiyatlarini tushinib olish mumkin. Masalani aniq va to'liq yoritib berish uchun ingliz va o'zbek tillariga oid grammatik manbalar, ilmiy maqolalar va mavjud tilshunoslik adabiyotlari ishlatilgan. Ushbu manbalar fe'lni qay yo'sinda ishlatish, grammatik qoidalar va fe'lning qiyoslash shakllari bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi. Bu ma'lumotlar ichidan faqat ikki tilning taqqoslashiga oid asosiy ma'lumotlar yig'ib olindi va har ikkala tilning korpuslari yordamida fe'llar va grammatik shakllariga oid misollar berildi. Shuningdek tadqiqotda ingliz va o'zbek fe'llarini solishtirish uchun uchta asosiy mezonlar belgilandi. Ulardan birinchisi bu fe'llarning har ikkala tilda qanday tasniflanishi va taqqoslanishi. Ikkinchisi grammatik kategoriyalardir, masalan, zamon, aspekt, mayl va nisbat kabi grammatik kategoriyalar solishtirildi va ushbu kategoriyalar har ikki tilda vaqtni va harakatga nisbatan munosabati ifodalandi. Oxirgisi esa bu morfologik va sintaktik xususiyatlar. Bu mezon bo'yicha fe'llarning morfologik tuzilishi tahlil qilindi, masalan, zamon, aspekt va maylning affikslar orqali qanday ifodalanishi. Shuningdek, sintaktik xususiyatlar, ya'ni so'z tartibi va fe'lning ega bilan moslashuvi ham ko'rib chiqildi. Taqqoslashni osonlashtirish uchun ingliz va o'zbek tillaridan fe'l shakllari va ularning grammatik xususiyatlarini ko'rsatuvchi bir nechta jadvallar yaratildi. Har ikkala tildan misollar keltirilib, bu jadvallarga joylashtirildi, bu esa ikki til o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni aniq ko'rsatdi. Tahlil fe'l tasnifi, zamonlar, aspektlar, mayllar va sintaktik strukturalarning har ikki tilda qanday amalga oshirilishini ko'rsatishga qaratildi.

Natijalar

Ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan holda quyidagi natijalarga keldi:

1. Fe'l tasnifi bo'yicha - ingliz tilida fe'llar ikki turga bo'linadi, qoidalarga mos (regular) va qoidalarga mos bo'lmagan (irregular). Masalan, play → played (regular) va go → went (irregular). O'zbek tilida esa fe'llar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Oddiy fe'llar mustaqil ishlatiladi (o'qimoq), murakkab fe'llar esa yordamchi so'zlar yordamida hosil qilinadi (o'qib bo'lmoq).
2. Zamonlar - ingliz tilida zamonlar va aspektlar juda aniq farqlanadi. Masalan, I read, I am reading, I have read va I have been reading. O'zbek tilida esa zamonlar fe'lga qo'shimchalar qo'shish orqali bir biridan farqlanadi va ifodalanadi. Misol uchun, hozirgi zamon (men o'qiyman), o'tgan zamon (men o'qidim), va kelasi zamon (men o'qiyman). Ingliz tilidan farqli ravishda, o'zbek tilida aspekt tizimi mavjud emas va u kontekst orqali tushuniladi.
3. Mayllar - ingliz tilida fe'llar uch asosiy maylga ega, ular hikoya (She reads books), buyruq (Read the book!), va istak mayli (If I were you, I would read the book). O'zbek tilida mayl maxsus qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, tasdiq (Men o'qiyman), inkor (Men o'qimayman), va istak – shart mayli (Men o'qisam kerak).
5. Ikki tilning so'z tartibi bo'yicha - ingliz tilida qat'iy so'z tartibi (SVO: She reads books) mavjud bo'lib, so'zlarning o'zaro ma'nosini aniqlaydi. O'zbek tilida esa so'z tartibi nisbatan erkin bo'lib, odatda ega-aniqlovchi-fe'l (SOV) tartibiga amal qilinadi (U kitob o'qiyapti).
7. O'zbek va ingliz tillarining morfologik xususiyatlari - ingliz tilida grammatik ma'nolar ko'pincha yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi va qo'shimchalar kamroq ishlatiladi. O'zbek tilida esa grammatik ma'nolar agglutinativ tizim asosida qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Har bir qo'shimcha muayyan grammatik ma'noni ifodalaydi. Bu natijalar ingliz va o'zbek fe'llarining grammatik tizimlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib beradi va quyidagi jadval yanada yoritib beradi:

Mezonlar	Ingliz tili	O'zbek tili
Fe'l tasnifi	a) <i>Regular</i> : play- played b) <i>Irregular</i> : go- went	a) <i>Oddiy fe'llar</i> : o'qimoq b) <i>Murakkab fe'llar</i> : o'qib bo'lmoq
Zamonlar	a) <i>simple</i> : I read, b) <i>continuous</i> : I am reading c) <i>perfect</i> : I have read, d) <i>perfect continuous</i> : I have been reading.	a) <i>hozirgi zamon</i> : men o'qiyman b) <i>o'tgan zamon</i> : men o'qidim c) <i>kelasi zamon</i> : men o'qiyman
So'z tartibi	<i>Subject+verb+object(qat'iy)</i>	<i>Subject+object+verb(erkin)</i>
Yordamchi vositalar	a) <i>Yordamchi fe'llar</i> : do, have, will b) <i>Modallar</i> : can, must, should	<i>asosan agglutinativ qo'shimchalar tizimi orqali ifodalanadi: o'qi-di (o'tgan zamon), o'qi-yap-man (hozirgi zamon).</i>

Muhokama

Ikkala tilning ham umumiy grammatik jihatlari bo'lsada, ularning tuzilishi va qo'llanilishi jihatdan ancha farqlanadi. Ingliz tili yordamchi va qat'iy so'z tartibiga tayanadi, o'zbek tili esa agglutinativ morfologiyaga asoslanadi va so'z tartibi jihatdan ham erkinroqdir. Ingliz tili o'rganuvchilari uchun fe'l aspektlari, zamonlar va fe'llar turlari qiyinchilik tug'dirishi mumkin, o'zbek tili o'rganuvchilariga esa fe'l qo'shimchalari tizimini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek fe'llarining tasnifi va grammatik xususiyatlari orasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatadi. Har ikkala til o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu inson tilining boyligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Ushbu xulosalar tilshunoslar va o'qituvchilar uchun samarali o'qitish usullarini ishlab chiqishda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2010). *The Stories of English*. Penguin Books.
3. Swan, M. (2005). *Practical English Usage*. Oxford University Press.
4. Muminov, A. (2018). *O‘zbek Tili Grammatikasi*. Toshkent.
5. Rakhmatullayev, S. (1980). *O‘zbek Tili Grammatikasi*. Toshkent.
6. Palmer, F. R. (1986). *Mood and Modality*. Cambridge University Press.
7. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. Longman.
8. Dixon, R. M. W. (2010). *Basic Linguistic Theory: Grammatical Topics*. Oxford University Press.
9. Comrie, B. (1976). *Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems*. Cambridge University Press.
10. Brown, K., & Miller, J. (2013). *The Cambridge Dictionary of Linguistics*. Cambridge University Press.